



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 3 (5)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

**Farg‘ona davlat universiteti uchun
MAXSUS SON**

3

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Abduvoxidov A.A. Moliyaviy bilim va ko‘nikmalarning iqtisodiy mazmuni hamda nazariy tamoyillari.	7
Olimova N.X. Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanishni rivojlantirish strategiyalari.	11
Эргашев А.Х. Исследование текущих тенденций и ограничений инвестиционной активности предприятий в стране.....	15
Yulchiyev A.O. Turistik destinatsiya tabiati va rivojlanish omillari: taklif va talabga asoslangan yondashuvlar.....	19
Mirzayev A.T., Ne‘matova D.A. Sanoatning bazaviy tarmoqlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....	23
Karimov Sh.X. Turizm faoliyatini boshqarish jarayoniga hududiy salohiyatning ta‘sirini baholash.....	30
O‘rinboyev D.B. Qurilish materiallari sanoati korxonalarida inqirozning shakllanish bosqichlari va diagnostik ko‘rsatkichlari tahlili.....	34
Goziyev M.Sh., Bahodirova M.R. Digital transformation of corporate governance in developing economies (case of Uzbekistan).....	44
Israilova M.V. Sanatoriya-kurort sohasida mulkchilik munosabatlarini transformatsiyalashning ayrim masalalari.....	48
Turg‘unov M.M. Milliy iqtisodiyotda oziq-ovqat sanoati rivojlanishining tarmoq xususiyatlari.....	53
Raximova K.N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish masalalari.....	58
Mannopova M.S. Agrar sohaning barqaror rivojlanishida meva-sabzavotchilik klasterlari: tuzilma, yo‘nalishlar va asosiy tamoyillar.....	63
Nematova Sh.E. Raqamli transformatsiya sharoitida xizmatlar sifat menejmenti va kichik biznes subyektlarining iqtisodiy barqarorligi.....	68
Rasulov U.A. Raqamli iqtisodiyot — yangi O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarining tayanch omili.....	72
Raximov D.Sh. Sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish jarayonlari va qayta ishlash tarmog‘ining raqobatbardoshlikka ta‘siri.....	77
Teshabayeva O.N. Turkiya tajribasi asosida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	81
Jumakulov Z.I., Tursunaliyeva K. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi: holati, rivojlanish tendentsiyalari va islohotlar samarasi.....	85
Jaksimova Z.R. Ko‘lam samarasi turlari, ularning tavsifi va ko‘lam samarasi asosida samaradorlikni oshirishning nazariy modellari.....	88
Yunusov A.R. "Green economy" - the problem of teaching at universities in Central Asia using the experience of european union universities.....	92
Юнусов Ш. Роль цифровизации и искусственного интеллекта в углублении региональных экономических отношений в Центральной Азии.....	95
Xalmatjanova G.D. Klasterlarni boshqarishning samaradorligini oshirish va resurslardan optimal foydalanish.....	104
Xomidov Q.Q. O‘zbekistonda turistik majmualar faoliyatini boshqarishning nazariy jihatlari.....	109
Jo‘rayev H.Q. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining strategik salohiyatini baholashning jarayon va tizimli yondashuvlari	114
Xakimov D.R. Oliy ta‘lim sohasida bozor munosabatlari rivojlanishining asosiy omillari.....	117
To‘xtasinova D. Xalqaro hamkorlikning eksport-import oqimlarini tartibga solishdagi roli.....	123
Xolmatov B.A. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida tejamkorlik darajasini statistik baholash.....	127
Jumakulov Z.I., Baxromov B. O‘zbekiston davlat byudjetini shakllantirishda soliqlarning roli.....	131
To‘ychiyeva B.V. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining barqarorligini ta‘minlashda strategik boshqaruvning ilmiy-nazariy asoslari.....	133
Abdisamatov Sh.A. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va iqtisodiy o‘shish barqarorligining asoslari hamda zamonaviy muammolari.....	141
Asraqulov A.S. Turistik xizmatlar bozorining rivojlanish xususiyatlari va turistik xizmat turlari diversifikatsiyalashuviga yondashuvlar.....	145
Rakhimova K.N., Mrs. Oubih Warda Institutional and innovative mechanisms for the development of digital tourism in Uzbekistan.....	151
Muxtorov A.A., Mirzayev A.T. Turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarishning omilli tahlili.....	154
Usibjonova G.U., Mannopova M.S. Milliy iqtisodiyotda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta‘minlashning ilmiy asoslari.....	161

Oltiboyeva M.A., Teshabayeva O.N. O‘zbekiston turizm logistikasini rivojlantirishda raqamli innovatsiyalarning roli.....	166
Ximmatova G.K., To‘xtasinova D. Xizmatlar bozorida korxonalarining raqobat ustunligini barqarorlashtirish.....	170
Oltiyeva M.A., Mirzayev A.T. Hududlar resurs salohiyatini baholash orqali potensial turistik resurslarni turistik faoliyatga kiritish imkoniyatlarini modellashtirish.....	174
Xasanova R., Teshabayeva O.N. Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida diversifikatsiyaning hududiy jihatlari.....	180
Zufarova G.A. Ta‘lim bitiruvchilarining ko‘nikmalari va mehnat bozori ehtiyojlari o‘rtasidagi nomuvofiqlik muammosi.....	184
Ergashev J.S. "Yashil marketing" konsepsiyasi asosida energiya tejamkor qurilish materiallari bozorini rivojlantirish	187
O‘rinov A.A. Tikuv-trikotaj mahsulotlariga talabni shakllantirish va sotishni rag‘batlantirish tizimining o‘ziga xos xususiyatlari.....	192
Uzganbayeva D.T., Mo‘ydinov A. Sut va sut mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida innovatsion salohiyatini iqtisodiy-matematik va faoliyatni boshqaruv mexanizmlari takomillashtirish.....	197
Саиджоновна З.Б. Ўзбекистонда саноат корхоналарига инвестиция жалб қилишнинг иқтисодий самарадорлиги.....	201
Qodirov Z.E. Fermer xo‘jaliklari faoliyatini rivojlantirishning imitatsion modellar tizimi.....	205
Ahmadaliyeva R.A., O‘rinov A.A. Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilishning iqtisodiy ahamiyati.....	210
Хайдаров Х. Сугурта муносабатларида сугурта тариф ставкаларини ахамияти ва муаммолари.....	214
Махамადийев М.М. Iqtisodiy tarmoqlarda innovatsion g‘oyalar bankidan foydalanishning tahliliy asoslari..	217
Madaminov G‘.M. Harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirishda qo‘shimcha to‘lovlar tizimining iqtisodiy va institutsional asoslari.....	222
Nazirboyev D.D. Moliyaviy siyosat va ijtimoiy barqarorlik omillari.....	227
Хасанова С.И. Ишлаб чиқариш корхоналари бошқаруви назарий асослари.....	232
Teshaboyev B.A. Econometric analysis of internal and external factors affecting the management efficiency of tourism enterprises.....	237
Mustafoyeva Z.A. Fintech texnologiyalarining moliya tizimi rivojlanishidagi o‘rni va istiqbollari.....	242
Xolmirzayev U.A., Muradova N.R. Rivojlanish strategiyalarida raqobat va hamkorlik o‘rtasidagi muvozanat: nazariy yondashuv va amaliy tahlil.....	245
Sadullayev R.P. Ekologik vaziyatni barqarorlashtirishda soliq mexanizmidan samarali foydalanish metodologiyasi: xorij tajribasi.....	249
Мурадов Б.Х., Аширов Д.Ф., Бахтиёрв Т.Д., Собиров Х.С. Қудратов М.Н. Основные факторы инновационных процессов АЭС, устойчивых источников энергии и перехода к «Зелёной» экономике.....	258
Tursunov O.B. Transport-logistika tizimini rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash.....	269
Sayitbayev Sh.D. Yangi O‘zbekistonda moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy o‘shish.....	274
Ibodulloyeva Z.S. Aligning energy systems engineering education with Uzbekistan’s renewable energy transition: rethinking curriculum reform through a policy–education lens.....	278
Salimova Z.S. Investitsiyalar va aholi daromadlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlashning konseptual asoslari.....	282
G‘aybullayeva Z.R., Oxunjonova K.K. Respublika tijorat banklari operatsiyalari va ularni rivojlantirish masalalari.....	286
Абдуллоев А.Ж. Ўзбекистонда маҳсулот сифатини бошқариш амалиётини давлат томонидан тартибга солиш йўналишлари.....	289
Rahimova M.I. O‘zbekistonda ayollar rahbarligidagi korxonalarining eksport faoliyati va hududiy rivojlanish tendensiyalari.....	294
Rahmatullayeva D.O. Bandlik tuzilmasining o‘zgarishi va iqtisodiy samaradorlikka ta‘siri.....	299
Valikulov Sh.Z. “O‘zbekneftgaz” AJ da investitsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini oshirish omillari va ularni tizimli tahlil qilish.....	305
Турабекова Г.И. Яшил иқтисодиёт ва инсониятнинг барқарор келажаги учун йўл.....	312
Tajirboyev S.O. Xalqaro investitsiyalar va kapital oqimlari.....	316
Madaminov A.M. Sanoat korxonalarini faoliyatida zamonaviy boshqaruv mexanizmlaridan foydalanish istiqbollari (oziq-ovqat sanoati misolida).....	319

**MOLIYAVIY BILIM VA KO‘NIKMALARNING IQTISODIY MAZMUNI HAMDA
NAZARIY TAMOYILLARI**

**ЭКОНОМИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ И ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ
ФИНАНСОВЫХ ЗНАНИЙ И НАВЫКОВ**

**ECONOMIC CONTENT AND THEORETICAL PRINCIPLES OF FINANCIAL
KNOWLEDGE AND SKILLS**

Abduvoxidov A.A. Guliston, GDU, dotsent

Annotatsiya

Ushbu maqolada moliyaviy bilim va ko‘nikmalarning iqtisodiy mazmuni, ularning shaxs va jamiyat iqtisodiy barqarorligidagi o‘rni hamda nazariy tamoyillari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Moliyaviy savodxonlik iqtisodiy ong, ratsional qaror qabul qilish va resurslardan samarali foydalanish omili sifatida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda moliyaviy xulq-atvor nazariyalari, inson kapitali konsepsiyasi hamda institutsional yondashuv asosida masala yoritiladi. Shuningdek, moliyaviy bilimlarning iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy farovonlik va moliyaviy xavfsizlikni ta’minlashdagi ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: moliyaviy savodxonlik, moliyaviy bilim, iqtisodiy mazmun, nazariy tamoyillar, inson kapitali, moliyaviy xulq-atvor, iqtisodiy qarorlar, moliyaviy barqarorlik.

В данной статье научно анализируется экономическое содержание финансовых знаний и навыков, их роль в обеспечении экономической устойчивости личности и общества, а также их теоретические основы. Финансовая грамотность рассматривается как фактор формирования экономического сознания, рационального принятия решений и эффективного использования ресурсов. Исследование базируется на теориях финансового поведения, концепции человеческого капитала и институциональном подходе. Раскрывается значение финансовых знаний в обеспечении экономического развития, социального благополучия и финансовой безопасности.

Ключевые слова: финансовая грамотность, финансовые знания, экономическое содержание, теоретические принципы, человеческий капитал, финансовое поведение, экономические решения, финансовая устойчивость.

This article examines the economic content of financial knowledge and skills, their role in ensuring individual and societal economic stability, and their theoretical foundations. Financial literacy is analyzed as a factor influencing economic awareness, rational decision-making, and efficient resource allocation. The study is based on financial behavior theories, human capital theory, and institutional approaches. Particular attention is given to the role of financial knowledge in promoting economic development, social welfare, and financial security.

Keywords: financial literacy, financial knowledge, economic content, theoretical principles, human capital, financial behavior, economic decision-making, financial stability.

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy bilim va ko‘nikmalar shaxs va jamiyat iqtisodiy barqarorligi uchun muhim omil hisoblanadi. Globallashuv, moliyaviy instrumentlar turining kengayishi va bozorlarning murakkablashuvi aholidan qarorlarni ongli va samarali qabul qilishni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, moliyaviy savodxonlikni ilmiy jihatdan tahlil qilish, uning nazariy tamoyillari va iqtisodiy xulq-atvordagi o‘rni dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu esa inson kapitali, ratsional tanlov nazariyasi va institutsional yondashuvlar doirasida kompleks tadqiqotni taqozo etadi.

Iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va aholi farovonligi fuqarolarning iqtisodiy jarayonlarga ongli munosabati va rivojlangan tafakkuriga bog‘liq. Moliyaviy savodxonlik darajasi oshishi shaxslarning qarorlarini samaraliroq qabul qilishni ta‘minlab, tadbirkorlik muhitini rivojlantiradi. Zamonaviy murakkab moliyaviy sharoitda u qarzlarni boshqarish, investitsiya va moliyaviy rejalashtirish hamda xatarlardan himoyalashning muhim omiliga aylanadi, ya‘ni faqat ma‘lumotga ega bo‘lish emas, balki uni amalda qo‘llay olishni ham o‘z ichiga oladi.

Moliyaviy savodxonlik rejalashtirish, daromad va xarajatlarni hisobga olish, moliyaviy balanslarni shakllantirish, axborot oqimlarini tahlil qilish, zamonaviy moliyaviy instrumentlardan samarali foydalanish hamda baholangan xatarlar asosida qaror qabul qilish kabi kompleks ko‘nikmalarni qamrab oladi. Shuningdek, u noqonuniy moliyaviy faoliyatdan himoyalash va turli darajada — shaxsiy, oilaviy, korporativ va davlat miqyosida — yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan salbiy moliyaviy oqibatlarni oldindan baholash qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi. Umuman olganda, moliyaviy savodxonlik moliyaviy mustaqillikka erishish, moliyaviy kategoriyalar mazmunini anglash va hisobdorlik madaniyatini shakllantirishning muhim institutsional asosi hisoblanadi [4]. Moliyaviy savodxonlikning muhim jihatlaridan biri moliyaviy mahsulot va xizmatlarni tanqidiy baholay olish qobiliyatidir. Bu esa shaxsdan turli xil investitsiya variantlarining risk va foydalarini baholash, moliyaviy mahsulotlarning shartlarini tushunish va uzoq muddatli moliyaviy maqsadlariga mos keladigan qarorlar qabul qilishni talab qiladi. Idrokning bunday darajasi odamlarni noiqtisodiy sxemalar va vijdonsiz moliyaviy amaliyotlarning qurboni bo‘lishidan himoya qilishi mumkin [1].

Keng jamoatchilik o‘rtasida moliyaviy xabardorlik va moliyaviy xulq-atvorni o‘rganish ilmiy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu sohada, avvalo, aholining moliyaviy savodxonligi va kompetentligini o‘lchash, moliyaviy xulq-atvor xususiyatlarini tahlil qilish, uning gender va yosh jihatlarini aniqlash hamda moliyaviy savodxonlikning moliyaviy qarorlarga ta‘sirini baholash kabi yondashuvlar shakllangan. Ilmiy adabiyotlarda moliyaviy savodxonlikning jamg‘arma, investitsiya va kredit qarorlariga ijobiy ta‘sirini asoslovchi tadqiqotlar mavjud. Shuningdek, moliyaviy bilimlarning shaxslarning moliyaviy faollik darajasi va xulq-atvor strategiyasiga ta‘siri ham keng yoritilgan. Qator izlanishlarda moliyaviy savodxonlik, riskka bardoshlilik va shubhali moliyaviy operatsiyalarni aniqlash qobiliyatining o‘zaro bog‘liq ta‘siri tahlil etilgan bo‘lsa, ayrim tadqiqotlar moliyaviy savodxonlikni baholashning uslubiy masalalariga yoki turli demografik guruhlar kesimida uni standart mezonlar asosida o‘lchashga qaratilgan [5].

2010-2011 yillarda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) va Moliyaviy ta‘lim agentliklari xalqaro tarmog‘i (INFF) ekspertlari tomonidan 14 mamlakatda tadqiqotlar olib borildi. Loyiha respondentlarning moliyaviy bilimlari, xulq-atvor afzalliklari va shaxsiy moliyaga munosabatini baholashga qaratilgan. Natijalar aksariyat respondentlarning moliyaviy savodxonlik darajasi past ekanligini ko‘rsatdi [2]. O‘zbekiston sharoitida o‘tkazilgan tadqiqotlar ham moliyaviy savodxonlikning aholining moliyaviy xizmatlarga munosabati va bozor takliflarini o‘z ehtiyojlariga mos ravishda tanlash qobiliyatiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Mualliflar xulosasiga ko‘ra, mamlakat fuqarolarining moliyaviy savodxonlik darajasi hozircha nisbatan pastligicha qolmoqda. Shu bilan birga, ayrim tadqiqotchilar moliyaviy savodxonlikni oshirish va raqamli moliyaviy ko‘nikmalarni rivojlantirish zarurati, avvalo, aholi daromadlarining past darajasi bilan bog‘liq ekanini ta‘kidlaydilar [3;6]. Moliyaviy savodxonlik bo‘yicha gender tafovutlarni o‘rgangan olimlar erkaklar ayollarga nisbatan ko‘proq moliyaviy bilimga ega ekanliklarini aniqladilar. Shu bilan birga, tadqiqotchilar xulosa qiladiki, ayollar o‘zlarining bilim yetishmasligini tan olishga ko‘proq moyil, bu esa ularga moliyaviy ta‘lim dasturlarini muvaffaqiyatli yakunlashda yordam beradi [7].

Turli yosh guruhlari kesimida moliyaviy savodxonlikning gender farqlarini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar alohida ilmiy yo‘nalish sifatida shakllangan. Xususan, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan 2012 va 2015 yillarda Belgiya, Italiya va Ispaniyada o‘tkazilgan davriy so‘rovlar natijalari o‘g‘il va qiz bolalar o‘rtasida moliyaviy savodxonlik darajasida sezilarli tafovut mavjudligini ko‘rsatgan. Ayni paytda, ayrim mamlakatlarda, jumladan Latviya va Sloveniyada, qizlar o‘rtasida savodxonlik ko‘rsatkichlari nisbatan yuqori ekani aniqlangan. Shuningdek, qator tadqiqotlar katta yosh toifasida erkaklar ayollarga nisbatan moliyaviy savodxonlik bo‘yicha yuqoriroq natijalarga ega ekanini qayd etadi.

Ota-onalarning o‘quvchilar moliyaviy bilimlari va xulq-atvoriga ta’siri ham ilmiy jihatdan o‘rganilgan. Natijalarga ko‘ra, o‘quvchilar dolzarb moliyaviy masalalarda ko‘pincha ota-onalar maslahatiga tayanadilar. Biroq ota-onalarning moliyaviy savodxonlik darajasi past bo‘lsa, bu holat farzandlar moliyaviy kompetensiyasining shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ayrim mamlakatlarda esa ota-onalar farzandlarini ta’lim uchun shaxsiy qarz olish yoki uni qaytarish bilan bog‘liq murakkab moliyaviy qarorlardan himoya qilishga intilmoqda.

Bir qator tadqiqotlar yoshlarning moliyaviy xulq-atvoriga madaniy omillar ta’sirini o‘rganishga bag‘ishlangan. Ularda moliyaviy savodxonlik darajasi turli til va madaniy guruhlarda moliyaviy ijtimoiylashuv bilan bog‘liqligi ta’kidlanadi. Masalan, Germaniya va Fransiya talabalarini o‘rganish natijasida nemis talabalarining savodxonlik darajasi yuqori ekani, ular yoshroq yoshda cho‘ntak pullari va bank hisoblariga mustaqil kirish imkoniyatiga ega bo‘lish ehtimoli ko‘proq ekanligi aniqlangan. Shu bilan birga, tadqiqotlar shaxslarning xulq-atvor xususiyatlari va moliyaviy savodxonligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni, shuningdek, bu omillarning moliyaviy qarorlarga ko‘rsatadigan umumiy ta’sirini tahlil qiladi. Natijalar moliyaviy bilimlar, xavf-xatarga ijobiy munosabat va investitsiya qarorlari o‘rtasida sezilarli ijobiy aloqani ko‘rsatadi, biroq riskni idrok etish omillari hisobga olinsa, bu bog‘liqlik nisbatan past darajada namoyon bo‘ladi.

Boshqa tadqiqotlar moliyaviy tushunchalarni yaxshi anglaydigan shaxslar oddiy aholiga nisbatan raqamli moliya xizmatlaridan ko‘proq foydalanishini ko‘rsatdi, ammo ularning kibr firibgarlikka uchrash xavfi ham yuqori. Olimlar moliyaviy bozorda muvaffaqiyatga erishish uchun faqat moliyaviy savodxonlik yetarli emas, raqamli texnologiyalar va kiberxavfsizlik bilimlari ham zarurligini ta’kidlaydilar. Shuningdek, o‘zini o‘zi nazorat qila oluvchi shaxslar moliyaviy vaziyatlari bo‘yicha ishonchliroq qaror qabul qiladi. Zamonaviy dunyoda moliyaviy bilimlar, ayniqsa, murakkab moliyaviy mahsulotlardan foydalanishda va pensiya tizimidagi o‘zgarishlar hamda bank va kredit xizmatlarini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi [4].

Janubiy Afrikadagi bir universitetning iqtisodiyot va menejment yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr talabalari o‘rtasida o‘tkazilgan tadqiqot moliyaviy savodxonlik darajasi past bo‘lgan talabalar ko‘proq tavakkalchilikka moyil, o‘ziga ishonchi yuqori va sabrsizroq bo‘lishini ko‘rsatdi. Tadqiqotchilar shuni aniqladiki, haddan tashqari ishonch yoki o‘ziga ishonchsizlik bozor signallarini e’tiborsiz qoldirib, asosli qarorlar qabul qilish imkoniyatini kamaytiradi. Natijada, talabalarining o‘ziga ishonchi va sabrsizligi Ponzi sxemalari kabi yuqori foizli investitsiya firibgarliklarining qurboni bo‘lish xavfini oshiradi. Shu tadqiqot shuni ham ko‘rsatdiki, moliyaviy savodxonlik darajasi bir xil bo‘lgan talabalar moliyaviy xulq-atvorini ularning e’tiqodi, qadriyatlar va ijtimoiy me’yorlari belgilaydi. Yoshlarning moliyaviy xulq-atvorini shakllantirishda kognitiv qobiliyatlar va ishonch darajalari muhim rol o‘ynaydi, biroq tavakkalchilikning ta’siri asosan umumiy qarz xatti-harakatlariga taalluqlidir, kundalik moliyaviy qarorlarga emas [8].

Tadqiqotchilar, shuningdek, shaxslarning faqat moliyaviy savodxon bo‘lishi emas, balki bu bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyati ham muhimligini ta’kidladilar. Bugungi dunyoda moliyaviy cheklovlar asosiy to‘siq bo‘lmagani uchun yoshlar moliyaviy muvaffaqiyatga erishish uchun tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va ortiqcha xarajat qilish vasvasasiga qarshi qo‘shimcha harakat qilishlari zarur. Aholi moliyaviy savodxonligi pastligi moliyaviy ta’lim dasturlarining samaradorligining pastligi bilan bog‘liq. Empirik tadqiqotlar ko‘rsatdiki, ishtirokchilarning moliyaviy bilimlariga moslashtirilgan ma’lumotlar ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirishga yordam beradi, shu bilan birga moliyaviy savodxonlik va ishonch o‘rtasidagi bog‘liqlik ham muhim omil ekani aniqlandi. M.Kramer o‘z tadqiqotida moliyaviy savodxonlikning pastligi salbiy oqibatlarini bartaraf etish uchun faqat moliyaviy maslahat berish emas, balki shaxslarga o‘z bilim va ko‘nikmalarini tanqidiy baholash imkonini beruvchi dasturlarni ishlab chiqish zarurligini ta’kidlaydi [4].

Boshqa tadqiqotlar ko‘rsatdiki, shaxsning moliyaviy bilimlarini idrok etishini o‘lchovchi o‘z-o‘zidan hisobot beradigan moliyaviy savodxonlik darajasi ehtiyotkor munosabat va pensiyaga tayyorgarlik tufayli jamg‘armalar shakllantirish bilan ijobiy korrelyatsiyaga ega. Mualliflar moliyaviy savodxonlikning o‘zi yetarli emasligini ta’kidlaydilar, chunki o‘z savodxonligini idrok etishdagi xatolar qaror qabul qilish jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Boshqa tadqiqotlar

o‘z-o‘zini nazorat qilish qobiliyati va moliyaviy farovonlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqladi va to‘g‘ri moliyaviy qarorlar qabul qilish uchun nafaqat moliyaviy bilim, balki o‘z-o‘zini tarbiyalash qobiliyati ham zarurligini ko‘rsatdi.

Moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish uchun o‘quvchilarning intellektual darajasiga mos va tushunarli manbalarni taqdim etish muhim sanaladi; bu uy xo‘jaliklariga ichki impulslarni samarali boshqarish va o‘z moliyaviy rejalarini amalga oshirish imkonini beradi. Avvalgi tadqiqotlar moliyaviy savodxonlikka ijtimoiy, gender va yosh omillari, shuningdek, tavakkalchilikka chidamlilik, o‘z-o‘ziga ishonch va o‘zini o‘zi tartibga solish kabi omillar ta‘sirini ham ko‘rsatgan. Ushbu xususiyatlar va ularning o‘zaro bog‘liqligini o‘rganish moliyaviy xatti-harakatlarning turli xillarini va ularning kuchli hamda zaif tomonlarini aniqlashga yordam beradi, shuningdek, moliyaviy tizimga yoki fond bozori institutlariga ishonchsizlikka asoslangan xulq-atvor stereotiplarini bartaraf qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu tadqiqotlar asosida xulosa qilinishicha, moliyaviy savodxonlik faqat moliyaviy bilimlarga ega bo‘lish emas, balki bu bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda samarali qo‘llay olish qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi. Moliyaviy qarorlarning to‘g‘ri va samarali qabul qilinishi shaxsning o‘z-o‘zini nazorat qilish, tanqidiy fikrlash va xavf-xatarga munosabat kabi psixologik va ijtimoiy omillar bilan chambarchas bog‘liq. Shuningdek, moliyaviy savodxonlikning gender, yosh va madaniy xususiyatlari, ijtimoiy me‘yorlar hamda raqamli moliya xizmatlaridan foydalanish qobiliyati uning samaradorligini belgilaydi. Shu nuqtai nazardan, moliyaviy savodxonlikni rivojlantirishda ta‘lim, huquqiy targ‘ibot va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi, bu esa shaxs va jamiyatning moliyaviy barqarorligi va farovonligini ta‘minlashda asosiy rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Астанакулов О. Молиявий саводхонлик: аҳоли фаровонлигини ошириш йўли. // Nashrlar. - 2024. - 355-360б.
2. Atkinson A., Messy F.A. Promoting financial inclusion through financial education: OECD/INFE evidence, policies and practice. - 2013.
3. Дусмухамедов О. Ўзбекистонда молиявий хизматлар оммабоплигини оширишда аҳолининг молиявий саводхонлигини оширишнинг муҳим жиҳатлари. // Iqtisodiyot va ta‘lim. - 2021. - №. 4. - 113-124б.
4. Lusardi A., Mitchell O. S. The economic importance of financial literacy: Theory and evidence. // American Economic Journal: Journal of Economic Literature. - 2014. - Т. 52. - №. 1. - p. 5-44.
5. Stolper O.A., Walter A. Financial literacy, financial advice, and financial behavior // Journal of business economics. - 2017. - Т. 87. - p. 581-643.
6. Тешабаева О.Н. и др. Аҳоли молиявий саводхонлиги ўсишининг тадбиркорлик фаолияти ва даромадлар даражасининг ошишига таъсири. // Gospodarka i Innowacje. - 2022. - Т. 29. - 348-355б.
7. Fonseca R. et al. What explains the gender gap in financial literacy? The role of household decision making. // Journal of Consumer Affairs. - 2012. - Т. 46. - №. 1. - p. 90-106.
8. Okicic Jasmina & Kokorovic Jukan, Meldina & Herić Mensur. (2021). Some Insights Into Financial Literacy Among Undergraduate Students: A Case of Bosnia and Herzegovina. International Journal of Financial Research. 12. 103. 10.5430/ijfr.v12n3p103.